

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISIGA 2017 — 2021-YILLARDA
IXTISOSLASHTIRILGAN TIBBIY YORDAM KO‘RSATISHNI YANADA
RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Sog‘liqni saqlashni isloh qilish davlat dasturlari amalga oshirilishi natijasida yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishning prinsipial jihatdan yangi tizimi tashkil etildi. Respublikada ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, shu jumladan, xirurgiya, kardiologiya, ko‘z mikroxirurgiyasi, urologiya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya, endokrinologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, dermatologiya va venerologiya, ftiziatriya va pulmonologiya (keyingi o‘rinlarda — Respublika markazlari) sohasida zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan va yuqori malakali vrachlar bilan to‘ldirilgan ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Keyingi besh yilda Respublika markazlarida 150 mingdan ortiq operatsiyalar, shu jumladan, 80 mingdan ortiq yuqori texnologik operativ muolajalar bajarildi, davolashning murakkab va noyob uslublari amaliyotga joriy etildi.

Shu bilan birga, ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish asosan Toshkent shahrida jamlangan, bu respublika mintaqalari aholisining tegishli xizmatlardan foydalanishini cheklab qo‘ymoqda. Zamonaviy diagnostika va maxsus tibbiyot uskunalar bilan yetarlicha jihozlanmaganlik, zamonaviy uskunalarda ishlash uchun vrachlarning yetarlicha tayyorlanmaganligi tufayli yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning ayrim turlaridan respublika aholisi foydalana olmayapti.

Markazlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmasligi, ayniqsa, yuqumli kasalliklarning turli sohasida, shu jumladan, ijtimoiy xavfli, onkologik hamda kam tarqalgan kasalliklar sohasida eng xavfli va murakkab kasalliklar tarqalishi tendensiyasi va qonuniyatini o‘z vaqtida aniqlash imkonini bermaydi. Eng ko‘p tarqalgan kasalliklar profilaktikasi va ularni barvaqt aniqlashning sinovdan o‘tkazilgan ilg‘or xalqaro amaliyotini joriy etish darajasi pastligicha qolmoqda.

Xalqaro amaliyot bilan taqqoslaganda, respublikada nevrologiya, travmatologiya va ortopediya, neyroxirurgiya xizmatlarining, shu jumladan, bolalar kasalliklari sohasidagi salohiyati zaif rivojlangan.

Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarning aniq tarif siyosati, shu jumladan, ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish tarifi ishlab chiqilmagan.

Ixtisoslashtirilgan markazlar vrachlari malakasini oshirish tizimi tubdan takomillashtirishga muhtoj, yetakchi xorijiy ixtisoslashtirilgan klinikalar bilan hamkorlik qilish, shuningdek, tajriba almashish va xorijiy mutaxassislarni jalb etish zarur darajada amalga oshirilmayapti.

Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning zamonaviy talablarga javob beradigan samarali tizimini yanada shakllantirish, profilaktika va kasalliklarni barvaqt aniqlash choralarini takomillashtirish, aholiga, shu jumladan, mintaqalarda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishning natijadorligi, sifati va undan foydalanishni tubdan oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining:

aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi Respublika markazlarini davlat muassasalariga aylantirish **1-ilovaga** muvofiq;

ayrim respublika davolash-profilaktika muassasalarini respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari etib qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi **2-ilovaga** muvofiq qabul qilinsin.

2. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari **3-ilovaga** muvofiq ro‘yxat bo‘yicha tibbiy xizmatlar ko‘rsatishning tegishli ixtisoslashgan yo‘nalishlari bo‘yicha respublikaning bosh tibbiyot tashkilotlari etib belgilansin.

3. Respublika markazlariga quyidagi asosiy vazifalar yuklansin:

umuman respublikada va har bir mintaqada kasalliklar tendensiyasini o'z vaqtida aniqlashni ta'minlaydigan tahliliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, sog'liqni saqlashning viloyat va tuman (shahar) tashkilotlari uchun profilaktik va davolash faoliyatining sxemalarini ishlab chiqish;

o'z ixtisosligi bo'yicha yagona metodik, texnologik, davolash va profilaktika siyosatini amalga oshirish, zamonaviy tibbiyot uskunalari va texnologiyalarga, dori vositalari va tibbiy buyumlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, klinik protokollarni ishlab chiqish;

shu jumladan, tegishli tibbiyot hujjatlarini ishlab chiqish, axborot va tushuntirish materiallarini nashr etish orqali mintaqalarda zarur profilaktika ishlari olib borilishiga ko'maklashish;

hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlariga tashkiliy-metodik rahbarlik qilish, ularning amaliyotiga tibbiy yordamning zamonaviy usullari va texnologiyalarini joriy etish;

sayyor konsultatsiyalar, mahorat darslarini, shuningdek, birinchi navbatda eng murakkab holatlarda hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarida operatsiyalarni muntazam ravishda o'tkazib borish;

Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti bilan birgalikda muassasalarning o'z tibbiyot xodimlari, ixtisoslashtirilgan hududiy tibbiyot tashkilotlarining tibbiyot xodimlari malakasini tizimli oshirish, shuningdek, klinik ordinaturada, bazaviy doktoranturada va doktoranturada tor mutaxassis kadrlarni tayyorlash;

yetakchi xalqaro tibbiyot markazlari, klinikalar va yuqori malakali xorijiy mutaxassislar bilan, shu jumladan, konsultatsiyalar va mahorat darslari o'tkazish uchun ularni respublikaga taklif etish orqali keng hamkorlikni tashkil etish, sog'liqni saqlashning mahalliy mutaxassislari chet eldagi ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari va klinikalarida tajriba orttirishiga ko'maklashish.

Respublika markazlari filiallari, turdosh ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlari va hududiy tibbiyot ko'p tarmoqli markazlarining ixtisoslashtirilgan bo'limlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari kasalliklarning profilaktikasini va ularni barvaqt aniqlashni ta'minlaydilar, shuningdek, tegishli ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatadilar.

4. Quyidagilarni nazarda tutgan holda ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish tizimi barcha darajalarda isloh qilinsin:

respublika darajasida — ixtisosli yo'nalishlar bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish;

viloyat darajasida — ixtisosli yo'nalishlar bo'yicha zamonaviy yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish;

tuman (shahar) darajasida — yangidan tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan turdosh bo'limlar negizida ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini tashkil etish darajasida — maxsus tasdiqlangan jadval bo'yicha tuman (shahar) va viloyat darajasidagi tashkilotlarning tor ixtisosli mutaxassislari tomonidan konsultatsiyalar berilishini, shuningdek, davolash va konsultativ-dagnostika yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning ayrim turlarini ko'rsatish.

5. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish sxemasi [4-ildovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturi [5-ildovaga](#) muvofiq tasdiqlansin, ushbu Dasturda quyidagilar nazarda tutilsin:

aholining sifatli va samarali ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlardan foydalanishini kengaytirishga yo'naltirilgan huquqiy bazani takomillashtirish;

Respublika markazlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish;

ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi tibbiyot tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish, profilaktika, diagnostika va davolashning zamonaviy usullarini joriy etish.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

bir oy muddatda davolash va diagnostikaning yuqori texnologik usullarini joriy etish va mahalliy mutaxassislarni ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalariga o'qitish uchun Respublika markazlariga taklif etiladigan Etakchi xorijiy markazlar va klinikalarning yuqori malakali mutaxassislarining ikki tomonlama kelib-ketishini, yashashi va ovqatlanishiga haq to'lash, mehnatiga tegishli haq to'lash xarajatlarini qoplash tartibi va manbalari to'g'risidagi nizomni;

uch oy muddatda yuqori texnologik diagnostika va davolash xizmatlari ko'rsatishning murakkabligidan, tig'izligidan, hajmidan kelib chiqqan holda mehnatga haq to'lash tizimiga tabaqalashtirilgan yondashishni joriy etish yo'li bilan ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini tasdiqlasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ikki oy muddatda:

Respublika markazlari va ularning filiallarini, shuningdek, turdosh ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlari va hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining ixtisoslashtirilgan bo'limlarini, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarini profilaktika, diagnostika va bemorlarni davolashning ixtisoslashtirilgan turlari bilan ta'minlash uchun tibbiyot uskunolari, instrumentlar bilan jihozlash standartlarini zamonaviy texnologiyalarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqsin va tasdiqlasin;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda moddiy-texnika bazani doimiy ravishda yangilash, dori vositalari va zarur sarflash materiallari, tibbiyot uskunalarini ehtiyot qismlar bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan Respublika markazlarining rentabelligi darajasini ta'minlashni, shuningdek, xodimlar mehnatiga haq to'lash shartlarini hisobga olgan holda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarga tariflarni shakllantirishning yangilangan umumiy qoidalari va metodikasini tasdiqlasin;

O'zbekiston Respublikasining chet elga davolanish uchun jo'nab ketayotgan fuqarolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritisin.

9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligining asoslangan buyurtmanomalari bo'yicha kelgusi yilga respublika, viloyat va tuman darajalarida imtiyozli toifaga tegishli ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatish, shuningdek, servis xizmati ko'rsatish, ta'mirlash, sarflash materiallari va yuqori texnologik uskunalar reaktivlari bilan ta'minlash uchun zarur hajmda budjet mablag'lari ajratilishini nazarda tutsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

2018-yil 1-yanvargacha Respublika markazlari bilan birgalikda tegishli ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamlardan foydalanishga, shu jumladan, imtiyozli toifalarni alohida hisobga olgan holda yuqori texnologik tibbiy yordamdan foydalanishga muhtoj bo'lgan bemorlarning doimiy yangilanadigan yagona elektron bazasini tashkil etsin;

2019-yil 1-yanvargacha barcha ixtisoslashtirilgan markazlarda, viloyat filiallarida, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida vrach qabuliga masofadan turib yozilish imkonini beruvchi elektron dastur joriy etilishini ta'minlasin;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda yetakchi xorijiy klinikalar va markazlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha Respublika markazlariga doimiy asosda ko'maklashsin.

11. 2022-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda:

aholiga pulli tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi sog'liqni saqlash davlat tizimining tibbiyot tashkilotlari (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno) soliqlarning barcha turlarini va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod etilsin, bo'shaydigan mablag'lar tibbiyot tashkilotlarini zamonaviy tibbiy, muhandislik-texnik uskunalar bilan jihozlashga va unga servis va texnik xizmat ko'rsatishga, ehtiyot qismlar, sarflash materiallari, inventar va boshqa tibbiy buyumlar xarid qilishga, yangi binolar va inshootlarni qurishga, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashga yo'naltirilsin;

belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha sog'liqni saqlash davlat tizimining tibbiyot tashkilotlari xorijdan olib kelinadigan tibbiyot uskunasi, butlovchi buyumlar, tibbiyot

uskunasiga ehtiyot qismlar va sarflash materiallari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'imi) bundan mustasno) ozod qilinsin;

sog'liqni saqlash davlat tizimining tibbiyot tashkilotlari mahalliy mutaxassislarining malakasini oshirish jarayoniga jalb etiladigan xorijiy olimlar, vrachlar va mutaxassislar tuzilgan mehnat shartnomalari doirasida olinadigan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan ozod etilsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar bo'yicha takliflar kiritsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi A.N. Yunusxodjayev zimmasiga yuklansin.



LexUZ sharhi

Ushbu qaror "Xalq so'zi" gazetasining 2017-yil 21-iyundagi 122 (6816)-sonida e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2017-yil 20-iyun,
PQ-3071-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-sonli **qaroriga**
1-ILOVA

Davlat muassasalariga aylantirilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi Respublika markazlari

RO'YXATI

1. "Akademik V. Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazi" AJ.
2. "Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi" AJ.
3. "Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya markazi" AJ.
4. "Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi markazi" AJ.
5. "Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi" AJ.
6. "Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi" AJ.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-sonli **qaroriga**
2-ILOVA

Respublika ixtisoslashtirilayotgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari etib qayta nomlanayotgan respublika davolash-profilaktika muassasalari

RO'YXATI

1. Akademik V. Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazi.
2. Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi.
3. Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya markazi.
4. Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi markazi.
5. Travmatologiya va ortopediya ilmiy-tadqiqot instituti.
6. Respublika neyroxirurgiya ilmiy markazi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-sonli **qaroriga**
3-ILOVA

Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari — tibbiy xizmatlar ko'rsatishning tegishli ixtisoslashtirilgan yo'nalishlari bo'yicha respublikaning bosh tibbiyot tashkilotlari

RO'YXATI

1. Akademik V. Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
2. Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
3. Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
4. Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
5. Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi..
6. Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
7. Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.



LexUZ sharhi

7-bandga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoniga asosan o'zgartirish kiritilgan. Rus tili matniga qarang.

8. Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va venerologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.



LexUZ sharhi

8-bandga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoniga asosan o'zgartirish kiritilgan. Rus tili matniga qarang.

9. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
10. Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
11. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
12. Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
13. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

Oldingi tahrirga qarang.

14. Respublika ilmiy-ixtisoslashtirilgan allergologiya markazi.
15. Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

16. Respublika ixtisoslashtirilgan nevrologiya va insult ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
(14 — 16-bandlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi PQ-4290-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2019-y., 07/19/4290/2959-son)

Oldingi tahrirga qarang.

17. Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
(17-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-fevraldagi PQ-4592-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.02.2020-y., 07/20/4592/0150-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-sonli qaroriga 4-ILOVA

Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish

SXEMASI



Izoh. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari mutaxassislari filiallarda hududiy ixtisosli tibbiyot tashkilotlarida va ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarida va tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida operatsiyalar, mahorat darslari o‘tkazadilar, maslahatlar beradilar.

Viloyat tibbiyot tashkilotlari va tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari mutaxassislari qishloq va shahar oilaviy poliklinikalarda va qishloq vrachlik punktlarida maslahatlar beradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyundagi PQ–3071-sonli qaroriga
5-ILOVA

**2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam
ko‘rsatishni yanada rivojlantirish
CHORA-TADBIRLARI DASTURI**

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddatlari	Summasi	Moliyalashtirish manbalari	Taqdim etiladigan hujjat shakli	Bajaruvchilari
I. Aholining sifatli va samarali ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlardan foydalanishini kengaytirishga yo‘naltirilgan huquqiy bazani takomillashtirish						
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2003-yil 26-fevraldagi PF-3214-son va “Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida” 2007-yil 19-sentabrdagi PF-3923-son farmonlariga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining markazlarning nomlarini o‘zgartirishni, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining tashkilotlarida tibbiy yordam ko‘rsatiladigan shaxslar imtiyozli	2017-yil 1-sentabr, III chorak	-	-	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Vazirlar Mahkamasining qarori	A. Shadmanov Sog‘liqni saqlash vazirligi, B. Xodjayev Moliya vazirligi, G. Saidov Iqtisodiyot vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

	toifasining yagona ro'yxatini yuritishni nazarda tutuvchi tegishli qarorlariga o'zgartirishlar kiritish.					
2.	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Namunaviy ustavini tasdiqlash.	2017-yil 1-avgust, III chorak	-	-	Vazirlar Mahkamasining qarori	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, B. Xodjaye Moliya vazirligi, G. Saidova Iqtisodiyot vazirligi
3.	Yuqori texnologik diagnostika va davolash xizmatlari ko'rsatishda murakkablikdan, tig'izlikdan, hajmdan kelib chiqib mehnatga haq to'lash tizimiga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish yo'li bilan respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va qabul qilish.	2017-yil 1-sentabr, III chorak	-	-	Vazirlar Mahkamasining qarori	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, B. Xodjaye Moliya vazirligi, G. Saidova Iqtisodiyot vazirligi, A. Abdusakimov Mehnat vazirligi
4.	2017 — 2021-yillarda aholiga ko'rsatilayotgan neyroxirurgik yordamni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish.	2017-yil 1-sentabr, III chorak	-	-	Vazirlar Mahkamasining qarori	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, B. Xodjaye Moliya vazirligi, G. Saidova Iqtisodiyot vazirligi
5.	Oliy tibbiyot ta'lim muassasalari klinikalari to'g'risidagi nizomlarni qayta ko'rib chiqish va yangilangan namunalarini tasdiqlash.	2017-yil 1-sentabr, III chorak	-	-	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi
6.	Davolash-diaagnostika xizmatlari ko'rsatishning zamonaviy ilmiy asoslangan usullari va texnologiyalarini joriy etishni hisobga olgan	2017 — 2021-yillar	-	-	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi

	holda davolashning ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishning standartlarini zaruriyatga ko'ra qayta ko'rib chiqish va majburiy joriy etish.					
II. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish						
7.	Moddiy-texnika bazani doimiy yangilash, dori vositalari va zarur sarflash materiallari, tibbiyot uskunasiga ehtiyot qismlar bilan ta'minlash, shuningdek quyidagilar yo'li bilan xodimlar mehnatiga haq to'lash shartlari uchun zarur bo'lgan pulli asosda tibbiy xizmatlar ko'rsatishdan mablag'lar tushumi darajasini yanada oshirish: rentabellikning tegishli darajasi ta'minlanishi hisobga olingan holda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarga tariflarni shakllantirishning yangilangan umumiy qoidalari va metodikasini tasdiqlash; norezidentlarga erkin muomaladagi valyutada tibbiy xizmatlar ko'rsatish tartibini joriy etish.	2017-yil 1-sentabr, III chorak	-	-	Qo'shma qaror	A. Shadmanov Sog'liqni saqlash vazirligi, B.Xodjaye Moliya vazirligi R. Gulyamov Davlat raqobat bo'limi qo'mitasi, G. Saidov Iqtisodiyot vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
8.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng qo'llanilishi hisobga olingan holda zamonaviy talablarga va ilg'or xorijiy tajribaga muvofiq tibbiyot tashkilotlarida hisob va hisobot hujjatlari yuritilishi	2017-yil 1-noyabr, IV chorak	-	-	Chora-tadbirlar kompleksi	A. Shadmanov Sog'liqni saqlash vazirligi, B. Xodjaye Moliya vazirligi G. Saidov Iqtisodiyot vazirligi

	tizimini takomillashtirish.					
III. Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tibbiyot tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash						
9.	1-ilovaga muvofiq respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan: yangi obyektlar qurish; obyektlarni rekonstruksiya qilish; mukammal ta‘mirlash yo‘li bilan mustahkamlash.	2017-2018-yillar 2017-2018-yillar 2018-2019-yillar	38 700,0 mln so‘m 37 000,0 mln so‘m 15 000,0 mln so‘m	Ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish Jamg‘armasi mablag‘lari	Investitsiya dasturi rivojlanish davlat dasturi	A. Shadmanov Sog‘liqni saqlash vazirligi B. Xodjayev Moliya vazirligi G. Saidova Iqtisodiyot vazirligi
10.	1a-ilovaga muvofiq hududiy ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan: yangi obyektlar qurish; obyektlarni rekonstruksiya qilish; mukammal ta‘mirlash yo‘li bilan mustahkamlash.	2017 — 2019-yillar 2017 — 2020-yillar 2018 — 2020-yillar	120 500,0 mln so‘m 84 800,0 mln so‘m 52 500,0 mln so‘m	Ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish Jamg‘armasi mablag‘lari	Investitsiya dasturi rivojlanish davlat dasturi	A. Shadmanov Sog‘liqni saqlash vazirligi, B. Xodjayev Moliya vazirligi G. Saidova Iqtisodiyot vazirligi
11.	1-ilovaga muvofiq respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya, ftiziatriya va pulmonologiya, kadriologiya, dermatologiya va venerologiya, terapiya va tibbiy rehabilitatsiya, endokrinologiya, ko‘z mikroxirurgiyasi, urologiya va travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarini yuqori texnologik	2017-2018 yillar	24 883,5 ming AQSh dollari	Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlarning kreditlari va grantlari	Investitsiya dasturi	A. Shadmanov Sog‘liqni saqlash vazirligi

	tibbiyot uskunasi bilan jihozlash.					
12.	Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarini va viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarini, viloyat onkologiya markazlarini, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarini yuqori texnologik uskuna — kompyuter tomograflari, magnitorezonans tomograflari, ko'chma mammografik komplekslar, rentgen apparatlari, UTT apparatlari, LOR-kombaynlar, laparoskoplar va boshqalar bilan jihozlash.	2017-2018-yillar	72 367,7 ming AQSh dollari	Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlarning kreditlari va grantlari	Investitsiya dasturi	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi
13.	Har bir hisobga olinadigan birlikning texnik holatini pasportlashtirgan holda tibbiyot uskunasiidan foydalanish samaradorligi bo'yicha yagona axborot ma'lumotlar bazasini tashkil etish.	2017-yil 1-sentabr, III chorak	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi
IV. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish						
14.	Magistraturada, klinik ordinaturada tor mutaxassislar tayyorlash, shuningdek birlamchi ixtisoslashuvdan o'tish yo'li bilan respublika tibbiyot tashkilotlari, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari va tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash.	2017 — 2020-yillar	-	Har yili ajratiladigan budget mablag'lari doirasida	Qo'shma qaror	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, R. Qosimov Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
15.	Respublika ixtisoslashtirilgan	2017 — 2020-yillar	-	Har yili ajratiladigan	Sog'liqni saqlash	A. Shadman

	ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari va oliy tibbiyot ta'lim muassasalari negizida tor ixtisosli mutaxassislarning malakasini uzluksiz oshirish tizimini takomillashtirish.			budjet mablag'lar doirasida	vazirining buyrug'i	Sog'liqni saqlash vazirligi
16.	Markaziy tuman (shahar) tibbiyot muassasalari vrachlari-mutaxassislari malakasini uzluksiz oshirish tizimini yaxshilash.	2017-yil 1-avgust, III chorak	3 500,0 ming AQSh dollari	Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadmanov Sog'liqni saqlash vazirligi
17.	Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Samarqand tibbiyot instituti va Andijon davlat tibbiyot instituti negizida o'quv-simulatsiya laboratoriyalari tashkil etish.	2017-2018-yillar	-	Har yili ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida	Chora-tadbirlar kompleksi	A. Shadmanov Sog'liqni saqlash vazirligi, B. Xodjaye Moliya vaziri G. Saidova Iqtisodiyot vazirligi
V. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish, profilaktika, diagnostika va davolashning zamonaviy usullarini joriy etish						
18.	Kasalliklarni oldini olish, o'z vaqtida tashxislash va davolashga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni olib borish.	2017 — 2021-yillar	-	Har yili ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadmanov Sog'liqni saqlash vazirligi
19.	Imtiyozli toifalarni va bolalarni alohida hisobga olgan holda tegishli ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar, shu jumladan, yuqori texnologik tibbiy yordamga muhtoj bemorlarning doimiy yangilab boriladigan yagona elektron ma'lumotlar bazasini tashkil etish.	2017-yil 1-noyabr, IV chorak	-	Bajaruvchilar mablag'lari, budjetdan tashqari mablag'lar va xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlarning kreditlari va grantlari	Chora-tadbirlar kompleksi	A. Shadmanov Sog'liqni saqlash vazirligi

20.	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari yetakchi mutaxassislarning aholining ijtimoiy nochor qatlamlari yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamdan foydalanilishini kengaytirish maqsadida mamlakatning barcha mintaqalariga muntazam ravishda chiqishlarini tashkil etish.	Har yili kelishilgan ishlab chiqarilgan dasturlarga muvofiq (kitob shaklida)	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi
21.	"Sog'liqni saqlash" axborot tizimi kompleksi doirasida barcha Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida vrach qabuliga masofadan turib yozilish imkonini beruvchi elektron dasturni ishlab chiqish va joriy etish.	2017-2018-yillar, kompleks chora-tadbirlarga muvofiq		Bajaruvchilar mablag'lari, budjetdan tashqari mablag'lar va xalqaro moliya institutlari hamda donor mamlakatlarning kreditlari va grantlari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, B. Xodjaye Moliya vazirligi manfaatdorlik vazirligi va idoralar
22.	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tomonidan joylarga chiqib, sog'liqni saqlash tizimining viloyat, shahar va tuman darajalaridagi ixtisosli tibbiyot tashkilotlari (bo'linmalari) faoliyatini tashkil etishga samarali metodik rahbarlik qilish tizimini shakllantirish.	Har yili kelishilgan tasdiqlangan jadvallarga muvofiq	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi
23.	Oliy tibbiyot ta'lim muassasalari, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining yetakchi	Har yili tasdiqlangan jadvallarga muvofiq (kitob shaklida)	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi

	mutaxassislarini jalb etgan holda diagnostika va davolashning yangi usullarini joriy etish bo'yicha viloyat, shahar va tuman darajalari tibbiyot tashkilotlari vrachlari uchun mahorat darslarini tashkil etish.					
24.	Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga davolashning quyidagi yuqori texnologik zamonaviy usullarini joriy etish: mitral klapani (qopqani) kichik invaziyali usulda protezlash operatsiyalari; aortal klapani (qopqani) kichik invaziyali usulda implantatsiyalash, qizilo'ngach-me'da kollektorini batamom ajratish, yumshoq to'qimalarning keng ko'lamli nuqsonlarini plastika qilish, mitral yetishmovchiligida qayta tiklovchi aralashuvlar, distal spleno-renal (qora taloq va buyrak venalari) anastomozini qo'yish bo'yicha operatsiyalar.	2018-yil 2019-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, F. Nazirov Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
25.	Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga quyidagi davolash va diagnostikaning yuqori texnologik zamonaviy usullarini joriy etish:		-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, Sh. Muxtarov Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

	yuqori va pastki peshob yo‘llarining faoliyat buzilishiga tashxis qo‘yishda urokinamik tekshiruvlarni, peshob yo‘lining (uretra) davomli torayishlarida rekonstruksiya qiluvchi-qayta tiklovchi operatsiyalarni, prostata bezi kasalliklarida endourologik transuretral operatsiyalarni; buyrak hosilalariga tashxis qo‘yishda ultratovush (doplerografik) tekshiruvlarni qo‘llash; buyrak hosilalarida a‘zo saqlovchi endoskopik operatsiyalarni, radiologik tekshiruvlarni (MSKT, MRT) qo‘llash.	2017-yil 2018-yil 2019-yil				
26.	Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga quyidagi davolash va diagnostikaning zamonaviy yuqori texnologik usullarini joriy etish: eksimerlazerli xirurgiya, korneotopografiya, kontaktsiz tonometriya-paximetriya; to‘r pardani elektrofiziologik tekshirish, to‘r pardaning vitrektomiyasi, lazerli dakriotsistorinostomiya, shoh parda kross-linkingi, to‘r pardaning lazerkoagulyatsiyasi;	2017-yil 2018-yil	-	Bajaruvchilar mablag‘lari	Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i	A. Shadman Sog‘liqni saqlash vazirligi, Z. Siddiqov Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

	ultratovushli biomikroskopiya, koʻzning optik kogerent tomografiyasi, shoh pardaning konfokal mikroskopiya.	2019-yil				
27.	Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga quyidagi davolash va diagnostikaning yuqori texnologik zamonaviy usullarini joriy etish: 75 yoshdan oshgan bemorlarda aortal qopqani kateter orqali implantatsiyalash; chap boʻlmacha quloqchasini kateter orqali berkitish, yurak tugʻma nuqsonlarini endovaskulyar davolash, qiziloʻngach orqali exokardiografiya qilish; mitral qopqani kateter orqali plastika qilish, aorta koʻtariluvchi qismini suprakonoral protezlash, aorta koʻtariluvchi qismini protezlash.	2017-yil 2018-yil 2019-yil	-	Bajaruvchilar mablagʻlari	Sogʻliqni saqlash vazirining buyrugʻi	A. Shadman Sogʻliqni saqlash vazirligi, R. Qurbonov Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
28.	Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga quyidagi davolash va diagnostikaning yuqori texnologik zamonaviy usullarini joriy etish: laparoskopik gisterektomiya (bachadonni olib tashlash), bachadonni ballonli tamponada qilish, operatsiyadan oldingi va keyingi davrda multimodal	2017-yil	-	Bajaruvchilar mablagʻlari	Sogʻliqni saqlash vazirining buyrugʻi	A. Shadman Sogʻliqni saqlash vazirligi, D. Najmutdinov Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

	og‘riqsizlantirish, katta miqdorda qon yo‘qotishda “Damadge control” — “Jarohat nazorati” usulini tatbiq qilish; stressli peshob ushlamaslikni kichik invaziyali usulda takomillashtirilgan operatsiyali izga solish, tug‘ruq yoshidagi ayollarda konservativ mioektomiya; bachadon bo‘yni saraton oldi holatlarini skrininglash; homila rivojlanishining anomaliyalarida bachadon ikkinchi fetal xirurgiyasi.	2018-yil 2019-yil				
29.	Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga quyidagi davolash va diagnostikaning yuqori texnologik zamonaviy usullarini joriy etish: aniq ko‘rinib turgan nafas yetishmovchiligi bo‘lgan bemorlarni yuqori chastotali o‘pka sun‘iy ventilatsiyasi yordamida respirator qo‘llab-quvvatlash; surunkali yurak yetishmovchiligi bo‘lgan bemorlarda buyraklar faoliyatining buzilishini prognozlashtirish mezonlarini aniqlash; antibiotiklarga chidamli shtammlarni molekulyar-genetik usullar bilan aniqlash.	2017-yil 2018-yil 2019-yil	-	Bajaruvchilar mablag‘lari	Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i	A. Shadman Sog‘liqni saqlash vazirligi, U. Kamilov Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
30.	Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va		-	Bajaruvchilar mablag‘lari	Sog‘liqni saqlash	A. Shadman Sog‘liqni saqlash vazirligi,

	venerologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga quyidagi davolash va diagnostikaning yuqori texnologik zamonaviy usullarini joriy etish: allopetsiyani davolashda sochlarni ekish usulini; ozonoterapiyadan foydalangan holda dermatozlarni davolash; eksimer nurdan foydalangan holda moxov va vitiligoning har xil shakllarini davolash, dermatologik kasalliklar terapiyasida lazer texnologiyalarini joriy etish.	2017-yil 2018-yil 2019-yil			vazirining buyrugʻi	U. Sabirov Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va venerologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
31.	Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga quyidagi davolash va diagnostikaning yuqori texnologik zamonaviy usullarini joriy etish: oʻpka va oʻpkadan tashqari silni davolashda videotorakoskopik operatsiyalar; torakomioplastika, beta-laktamaza faolligini aniqlash usullari, yirik boʻgʻimlarni batamom endoprotezlash; infravezikulyar (pufak ichi) torayishlarda kichik invaziyali operatsiyalarni qoʻllash, traxeya va bronxlarning plastik operatsiyalari, oʻpka va plevrada video-yordamchi va videotorakoskopik operatsiyalarni qoʻllash;	2017-yil 2018-yil 2019-yil	-	Bajaruvchilar mablagʻlari	Sogʻliqni saqlash vazirining buyrugʻi	A. Shadmanov Sogʻliqni saqlash vazirligi, N. Parpiyev Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

	bosh bronxni to'sh orqali (transsternal) berkitish (okklyuziyasi), nefropeksiya, sigmotsistoplastika, umurtqa pog'onasi patologiyalarida radikal-qayta tiklovchi operatsiyalar.	2020-yil				
32.	Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga quyidagi davolash va diagnostikaning yuqori texnologik zamonaviy usullarini joriy etish: chaqaloqlarda audioskrining o'tkazishni ham o'z ichiga oluvchi og'ir shakldagi qulog'i og'ir va kar bolalarni reabilitatsiya qilish, bolalarni tanlab olish va operatsiyagacha reabilitatsiya qilish, koxlear implantatsiya operatsiyasi, operatsiyadan keyingi tibbiy- ijtimoiy va pedagogik reabilitatsiya; bolalardagi safro yo'llari va peshob chiqaruvchi yo'llarning tug'ma nuqsonlari hamda orttirilgan usullarda tashxis qo'yish va izga solish.	2018-yil 2019-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, D. Axmedov Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
33.	Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi amaliyotiga quyidagi davolash va diagnostikaning yuqori texnologik zamonaviy usullarini joriy etish:		-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, A. Alimov Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

	markaziy asab tizimi va orqa miya hosilalarida kontrastli magnit-rezonans tomografiyani qo'llash; glyukoza miqdori va insulin pompasini kecha-kunduzi monitorlash, bosh miya o'smasiga tashxis qo'yishda stereotoksik biopsiya usulini qo'llash, markaziy asab tizimi o'smalarida operatsiya ichi fluorescent spektroskopiyani qo'llash; bosh miya qutisi asosining o'smalarida kengaytirilgan transnazal (burun orqali) yo'llarni qo'llash, qalqonsimon oldi bezlarining endoskopik xirurgiya usullari, optik kogerent tomografiya, autoflyuoressent a'zosi kasalliklarini lazer yordamida davolash usullari.	2017-yil 2019-yil 2020-yil				
34.	Respublika ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro, Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlari ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari amaliyotiga stenozlar i anevrizmalarda yurak tomirlari va bosh miyani stentlash bo'yicha davolashning zamonaviy usullarini joriy etish.	2017-yil	9 772,0 mln so'm	Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish Jamg'armasi mablag'lari, Yaponiya Hukumati grantlari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, R. Qurbonov Respublika ixtisoslashtirish kardiology ilmiy-amaliy tibbiyot markazi F. Nazirov Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirish xirurgiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi, G. Kariyev

						Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
35.	Andijon va Samarqand davlat tibbiyot institutlari klinikalari, Buxoro va Fargʻona viloyatlari koʻp tarmoqli tibbiyot markazlari amaliyotiga katta yoshdagilarga yurakning ogʻir kasalliklariga nisbatan ochiq yurakda operatsiyalarni joriy etish.	2018-yil	9 158,0 mln soʻm	Taʼlim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish Jamgʻarmasi mablagʻlari	Sogʻliqni saqlash vazirining buyrugʻi	A.Shadmanov Sogʻliqni saqlash vazirligi, R. Qurbonov Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi F. Nazirov Akademik Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
36.	Xorazm, Namangan va Samarqand viloyatlari bolalar koʻp tarmoqli tibbiyot markazlari amaliyotiga bolalarda ogʻir yurak kasalliklariga nisbatan ochiq yurakda operatsiyalarni joriy etish.	2018-yil	6 114,9 mln soʻm	Taʼlim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish Jamgʻarmasi mablagʻlari	Sogʻliqni saqlash vazirining buyrugʻi	A. Shadmanov Sogʻliqni saqlash vazirligi, R. Qurbonov Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi F. Nazirov Akademik Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
37.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining jarrohlik amaliyotiga quyidagilarni joriy etish: distal spleno-renal (qora taloq va buyrak venalari oʻrtasida) anastomozlarni	2017-yil	-	Bajaruvchilar mablagʻlari	Sogʻliqni saqlash vazirining buyrugʻi	A. Shadmanov Sogʻliqni saqlash vazirligi, F. Nazirov Akademik Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

	laparoskopiya usulda qo‘llash; qizilo‘ngach orqali (operatsiya vaqtida) exokardiografiya qilish, qizilo‘ngach varikoz kengaygan venalaridan faol qon ketayotgan bir paytda stentlash; multifokal (ko‘p o‘choqli) arterioskleroz bilan og‘rigan bemorlarda toj hamda uyqu arteriyalarining qo‘shilib shikastlanishida bir vaqtning o‘zida angioplastika va stentlash usulini ishlab chiqish va tatbiq etish; protez oldi churrallari bo‘lgan bemorlarda sanografik mezonlarni aniqlash.	2018-yil 2019-yil				amaliy tibbiy markazi
38.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining urologiya amaliyotiga quyidagilarni joriy etish: quyi siydik yo‘llari funksiyalari buzilishini baholashning zamonaviy diagnostika kompleksini (urofloumetriya), yuqori va pastki siydik yo‘llarini kam jarohatli drenirlash maqsadida endoskopik operatsiyalarning zamonaviy kompleksi; buyrak va yuqori siydik yo‘llaridagi toshlarni masofadan turib maydalashning zamonaviy usuli (EUVL); urologik kasalliklar diagnostikasi uchun radiologik	2018-yil 2019-yil 2020-yil	-	Bajaruvchilar mablag‘lari	Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i	A. Shadman Sog‘liqni saqlash vazirligi, Sh. Muxtarov Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy amaliy tibbiy markazi

	tadqiqotlarning zamonaviy kompleksi, buyrakning yakka-yolg'iz, asoratsiz toshlarini olib tashlashning zamonaviy endoskopik usuli (MSKT, MRT).					
39.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining oftalmologik amaliyotiga: katarakta fakoemulsifikatsiyasini; to'r parda lazerkoagulatsiyasini joriy etish.	2017-yil 2018-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, Z. Siddiqov Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
40.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining kardiologiya amaliyotiga: toj tomirlari angiografiyasi, toj tomirlarida angioplastika bilan kechuvchi teri orqali aralashuvlar (operatsiyalar), ko'p o'choqli (multifokal) arterioskleroz bilan og'rigan bemorlarda toj va uyqu tomirlarining qo'shilgan torayishi kuzatilganda bir vaqtning o'zida angioplastika va stentlash, ishemik insultda ichki uyqu arteriyasini stentlash, aorto-koronar shuntlash; yurak ishemik kasalligining turli shakllarida Absorb bioeruvchi karkaslarni o'rnatish, yurak-qon tomir kasalliklariga tashxis qo'yishda	2018-yil 2019-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, R. Qurbonov Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

	zamonaviy radiologik tekshiruvlar majmuasini (MSKT) qo'llash.					
41.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining akusherlik va ginekologiya amaliyotiga quyidagilarni joriy etish: bachadon bo'yni saraton oldi kasalliklari skriningini o'tkazish; tug'ruqdan keyingi qon ketishlarida bachadonni ballonli tamponada qilish; operatsiyadan oldingi va keyingi davrda multimodal og'riqsizlantirish, katta miqdorda qon yo'qotishni davolashda "Damage control" usulini qo'llash.	2018-yil 2019-yil 2020-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, D. Najmutdinov Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
42.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining terapiya amaliyotiga quyidagilarni joriy etish: Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida pankreatik yetishmovchilikka tashxis qo'yish uchun fekal elastazmani aniqlashda IFA metodika bo'yicha tashxis qo'yish; bronxomotor test o'tkazish metodikasi, buyrak funksiyalarini hisobga olgan holda surunkali yurak yetishmovchiligiga chalingan bemorlarda terapiyani tanlashni optimallashtirish, qon tomirlari kasalliklariga	2017-yil 2018-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, U. Kamilov Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiyot reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

	chalingan bemorlarda UTD va magnit maydonlarining kompleks ta'siri.					
43.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining dermatologiya amaliyotiga quyidagilarni joriy etish: gipergidrozga chalingan bemorlarda Minor namunasini moxovga va vitiligoga chalingan bemorlarga PUVA-terapiyasini, virusli kasalliklarni davolashda elektrokoagulatsiya va krioterapiyani joriy etish (VPCh).	2018-yil 2019-yil 2020-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, U. Sobirov Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya venerologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
44.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining ftiziatriya amaliyotiga quyidagilarni joriy etish: 1 va 2-qator silga qarshi vositalarga nisbatan chidamlilikni aniqlashning tezlashtirilgan tashxisi test usullari; davolashning yangi qisqartirilgan usullari va statsionarning o'rnini bosuvchi texnologiyalar, o'pka va plevrada radikal-rezektsion operatsiya usullari (atipik va segmentar rezektsiyalar, lobektomiyalar, pulmonektomiyalar, plevrektomiya va dekortikatsiyalar), torakoplastik operatsiyalar;	2018-yil 2019-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, N. Parpiyev Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

	infravezikulyar torayishlarda kichik invaziyali operatsiyalar (siydik nayini stentlash, teri orqali nefrostoma va tsistostoma quyish), umurtqa pog'onasi patologiyalarida orqa miya tuzilmalarini tiklash bilan bajariluvchi radikal-qayta tiklash operatsiyalari, umurtqa pog'ona ustunida turli xil metall tuzilmalarni qo'llash bilan bajariluvchi qayta tiklash operatsiyalari, umurtqa pog'onasi va bo'g'imlar kasalliklarida kichik invaziyali operatsiyalar (absessonekrektomiya, churrallarni olib tashlash, bo'g'imlar faoliyatini qayta tiklash).	2020-yil				
45.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining pediatriya amaliyotiga quyidagilarni joriy etish: barcha perinatal markazlarda va viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida chaqaloqlarning neyroaudiskriningi; siydik chiqarish tizimi organlarining tug'ma va orttirilgan kasalliklari diagnostikasi va davolashda endoskopik usullar; koxlear implantatsiyasi operatsiyasidan keyin kar va 4-darajali qulog'i og'ir bolalarni operatsiyadan keyin	2017-yil 2018-yil 2019-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, D. Axmedov Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy amaliy tibbiyot markazi

	kompleks tibbiy-ijtimoiy va pedagogik reabilitatsiya qilish.					
46.	Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarining endokrinologiya amaliyotiga quyidagilarni joriy etish: buqoqning tugunli shakllarida IFA-diagnostika, nozik igna aspiratsion biopsiya usuli va jarrohlik operatsiyalari; yod tanqisligi holatining og'irlik darajasini baholash maqsadida yod tanqisligi holatlari monitoringini olib borish (buqoqning tarqalganligi, yoduriya, tuzdagi yod miqdoriga qarab); glyukoza va insulin pompasini kecha-kunduz davomida monitoring qilish.	2017-yil 2018-yil 2019-yil	-	Bajaruvchilar mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi, A. Alimov Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
47.	Mavjud umumiy jarrohlik o'rin fondini qayta ixtisoslashtirish yo'li bilan tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida jarrohlik yo'nalishidagi ixtisoslashtirilgan bo'limlarini (travmatologiya, otolaringologiya, oftalmologiya va boshqalar) tashkil etish.	2017 — 2021-yillar	-	Budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi
48.	Mavjud umumterapevtik o'rin fondini qayta ixtisoslashtirish yo'li bilan tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida terapiya yo'nalishidagi ixtisoslashtirilgan	2017 — 2021-yillar	-	Budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida	Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i	A. Shadman Sog'liqni saqlash vazirligi

	bo'limlarini (kardiologiya, nevrologiya, endokrinologiya va boshqalar) tashkil etish.					
--	---	--	--	--	--	--

**Chora-tadbirlar dasturi tadbirlarini
amalga oshirishga xarajatlarning jami:
373,5 mlrd so'm va 100,75 mln AQSh
dollari**

undan: mlrd
so'm mln AQSh dollari

Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari – 373,5

Xalqaro tashkilotlar, moliya institutlarining
mablag'lari va grantlari – 100,75

(5-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi PF-5370-sonli Farmoni
tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2020-y., 06/20/5370/0975-son)

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni
yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturiga
1-ILOVA

**2017 — 2021-yillarda respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari
obyektlari qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning**

ASOSIY PARAMETRLARI

T/r	Obyektning nomi	Quvvati	Qiymati (mlrd so'm)	Ishga tushirish muddati	Mas'ul bajaruvchilar
I. Yangi qurilish obyektlari					
1.	Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining qabul qilish-diaagnostika bo'limi bilan birgalikda statsionarining yangi binosini qurish.	45 o'rin	Umumiy qiymati 11,3; shu jumladan, 2017-yil — 5,0	2017- 2018- yillar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy- amaliy tibbiyot markazi
2.	Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi poliklinikasining yangi binosini qurish.	bir smenada 250 tashrif	Umumiy qiymati 14,2; shu jumladan, 2017-yil — 5,0	2017- 2018- yillar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
3.	Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining 40 o'rinli yangi binosi va ma'muriy binosini qurish.	40 o'rin	6,0	2017-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy- amaliy tibbiyot markazi
4.	Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi poliklinikasining yangi binosini qurish.	bir smenada 250 tashrif	7,2	2018-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy- amaliy tibbiyot markazi

	Jami qurilish:		Umumiy qiymati 38,7; shu jumladan, 2017-yil — 16,0		
II. Rekonstruksiya qilish obyektlari					
5.	Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy rehabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bolalar bo‘limi binosining texnik qavatini rekonstruksiya qilish, bolalar oshxonasining 80 o‘rinli oshxonasini rekonstruksiya qilish.	Obyekt	4,0	2017-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy rehabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
6.	Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining 90 o‘rinli davolash korpusini va diagnostika bo‘limini rekonstruksiya qilish.	90 o‘rin	Umumiy qiymati 18,0, shu jumladan, 2017-yil — 10,0	2016- 2017- yillar	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
7.	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi poliklinikasi binosini rekonstruksiya qilish.	bir smenada 100 tashrif	3,0	2017-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
8.	Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi poliklinikasini rekonstruksiya qilish.	bir smenada 250 tashrif	12,0	2017-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
	Jami rekonstruksiya qilish:		Umumiy qiymati 37,0; shu jumladan, 2017-yil — 29,0		
III. Mukammal ta‘mirlash obyektlari					
9.	Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining oziq-ovqat bloki binosini mukammal ta‘mirlash.	Obyekt	1,5	2018-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
10.	Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va venerologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining 1-davolash korpusi binosini mukammal ta‘mirlash.	40 o‘rin	3,5	2018-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va

					venerologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
11.	Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining davolash korpusi poliklinikasi binosini mukammal ta'mirlash.	100 o'rin, bir smenada 240 tashrif	10,0	2018-2019-yillar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
	Jami mukammal ta'mirlash:		15,0		

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari **dasturiga**
1a-ILOVA

2017 — 2021-yillarda hududiy ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari obyektlari qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning

ASOSIY PARAMETRLARI

T/r	Obyektning nomi	Quvvati	Qiymati (mlrd so'm)	Ishga tushirish muddati	Mas'ul bajaruvchilar
I. Yangi qurilish obyektlari					
1.	Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Nukus filialining yangi binosini qurish.	50 ta o'rin	6,0	2019-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
2.	Jizzax viloyat endokrinologiya dispanserining yangi binosini qurish.	100 ta o'rin, bir smenada 100 tashrif	5,0	2018-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Jizzax viloyati hokimligi
3.	Navoiy viloyat endokrinologiya dispanserining yangi binosini qurish.	85 ta o'rin	12,0	2017-2018-yillar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Navoiy viloyati hokimligi
4.	Toshkent shahar endokrinologiya dispanserining yangi binosini qurish.	bir smenada 200 tashrif	2,5	2017-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahri hokimligi
5.	Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali klinikasini qurish.	120 ta o'rin	Umumiy qiymati 45,0; shu jumladan, 2017-yil — 25,0	2017-2018-yillar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
6.	Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasini qurish.	200 ta o'rin	Umumiy qiymati 50,0; shu jumladan,	2018-2019-yillar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi

			2018-yil — 30,0		
	Jami qurilish:		Umumiy qiymati 120,5; shu jumladan, 2017-yil — 32,5		
II. Rekonstruksiya qilish obyektlari					
7.	Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Buxoro viloyat filialini rekonstruksiya qilish.	120 ta o‘rin, bir smenada 200 tashrif	10,0	2017-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi
8.	Navoiy viloyat perinatal markazini rekonstruksiya qilish.	120 ta o‘rin	7,0	2017-2018-yillar	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Navoiy viloyati hokimligi
9.	Surxondaryo viloyat perinatal markazini rekonstruksiya qilish.	160 ta o‘rin	5,5	2017-2018-yillar	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi
10.	Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Termiz filialini rekonstruksiya qilish.	40 ta o‘rin	4,5	2017-2018-yillar	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi
11.	Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Termiz filialini rekonstruksiya qilish.	70 ta o‘rin	4,5	2017-2018-yillar	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi
12.	Urganch shahrida Xorazm viloyat kardiologiya dispanseri hududida bolalar kardiokirurgiya korpusini qurish.	15 ta o‘rin	3,5	2017-2018-yillar	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi
13.	Toshkent viloyat teri-tanosil dispanserini rekonstruksiya qilish.	50 ta o‘rin	5,0	2020-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi
14.	Surxondaryo viloyat teri-tanosil dispanserini rekonstruksiya qilish.	80 ta o‘rin	3,0	2018-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi
15.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi endokrinologiya dispanserini rekonstruksiya qilish.	100 ta o‘rin, bir smenada 100 tashrif	5,0	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
16.	Andijon viloyat endokrinologiya dispanserini rekonstruksiya qilish.	120 ta o‘rin, bir smenada 150 tashrif	6,0	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Andijon viloyati hokimligi

17.	Buxoro viloyat endokrinologiya dispanserini rekonstruksiya qilish.	120 ta o‘rin, smenada 100 tashrif	7,0	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi
18.	Namangan viloyat endokrinologiya dispanserini rekonstruksiya qilish.	160 ta o‘rin, bir smenada 150 tashrif	5,0	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Namangan viloyati hokimligi
19.	Samarqand viloyat endokrinologiya dispanserini rekonstruksiya qilish.	90 ta o‘rin, bir smenada 100 tashrif	4,0	2018-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi
20.	Sirdaryo viloyat endokrinologiya dispanserini rekonstruksiya qilish.	60 ta o‘rin, bir smenada 100 tashrif	5,0	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Sirdaryo viloyati hokimligi
21.	Toshkent viloyat endokrinologiya dispanserini rekonstruksiya qilish.	70 ta o‘rin, bir smenada 150 tashrif	5,0	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi
22.	Farg‘ona viloyat endokrinologiya dispanserini rekonstruksiya qilish.	120 ta o‘rin, bir smenada 100 tashrif	4,8	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Farg‘ona viloyati hokimligi
Jami rekonstruksiya qilish:			84,8		
III. Mukammal ta’mir olib borilgan obyektlari					
23.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi kardiologiya dispanseri binolarini mukammal ta’mir olib borilgan.	125 ta o‘rin	3,0	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
24.	Andijon viloyat kardiologiya dispanseri binolarini mukammal ta’mir olib borilgan.	70 ta o‘rin	3,0	2018-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Andijon viloyati hokimligi
25.	Buxoro viloyat kardiologiya dispanseri binolarini mukammal ta’mir olib borilgan.	110 ta o‘rin	3,0	2020-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi
26.	Sirdaryo viloyat kardiologiya dispanseri binolarini mukammal ta’mir olib borilgan.	65 ta o‘rin	3,0	2020-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Sirdaryo viloyati hokimligi
27.	Toshkent viloyat kardiologiya dispanseri binolarini mukammal ta’mir olib borilgan.	90 ta o‘rin	3,0	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi
28.	Farg‘ona viloyat kardiologiya dispanseri binolarini mukammal ta’mir olib borilgan.	75 ta o‘rin	3,0	2020-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Farg‘ona viloyati hokimligi
29.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi oftalmologiya kasalxonasi binolarini mukammal ta’mir olib borilgan.	80 ta o‘rin	3,0	2019-yil	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston

					Respublikasi Vazirlar Kengashi
30.	Buxoro viloyat oftalmologiya kasalxonasi binolarini mukammal ta'mirlash.	50 ta o'rin	3,0	2019-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi
31.	Jizzax viloyat oftalmologiya kasalxonasi binolarini mukammal ta'mirlash.	70 ta o'rin	3,0	2019-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Jizzax viloyati hokimligi
32.	Samarqand viloyat oftalmologiya kasalxonasi binolarini mukammal ta'mirlash.	130 ta o'rin	3,0	2019-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi
33.	Farg'ona viloyat oftalmologiya kasalxonasi binolarini mukammal ta'mirlash.	100 ta o'rin	3,0	2019-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Farg'ona viloyati hokimligi
34.	Toshkent viloyat oftalmologiya kasalxonasi binolarini mukammal ta'mirlash.	40 ta o'rin	3,0	2019-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi
35.	Qashqadaryo viloyat oftalmologiya kasalxonasi binolarini mukammal ta'mirlash.	75 ta o'rin	3,0	2019-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Qashqadaryo viloyati hokimligi
36.	Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Nukus filialini mukammal ta'mirlash.	210 ta o'rin	4,5	2018-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
37.	Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Jizzax filialini mukammal ta'mirlash.	165 ta o'rin	4,5	2019-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Jizzax viloyati hokimligi
38.	Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qashqadaryo filialini mukammal ta'mirlash.	200 ta o'rin	4,5	2020-yil	Sog'liqni saqlash vazirligi, Qashqadaryo viloyati hokimligi
	Jami mukammal ta'mirlash:		52,5		

Izoh. Ko'rsatib o'tilgan yangi qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash obyektlaridagi ishlar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish Jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Ishlar qiymati dastlabki hisob-kitoblar bo'yicha, qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning uzil-kesil qiymati loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgandan va davlat ekspertizasidan o'tkazilgandan keyin va tender savdolari o'tkazish yakunlari bo'yicha aniqlanadi.

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturiga
2-ILOVA

Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarini yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlash

PARAMETRLARI

T/r	Muassasaning nomi	Amalga oshirish davri	Moliyalashtirish hajmi, ming AQSh dollari	Moliyalashtirish manbalari
1.	Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.	2017-yil	2 948,5	KfW-bank
2.	Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.	2017-yil	2 200,0	KfW-bank
3.	Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.	2017-yil	3 300,0	KfW-bank
4.	Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va venerologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.	2017-2018-yillar	980,70	Saudiya taraqqiyot jamg'armasi
5.	Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.	2017-2018-yillar	2 880,0	Saudiya taraqqiyot jamg'armasi
6.	Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.	2017-2018-yillar	3 192,0	Saudiya taraqqiyot jamg'armasi
7.	Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.	2017-2018-yillar	2 713,0	Saudiya taraqqiyot jamg'armasi
8.	Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.	2017-2018-yillar	3 315,0	Saudiya taraqqiyot jamg'armasi
9.	Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.	2017-2018-yillar	3 354,3	Saudiya taraqqiyot jamg'armasi
Hammasi			24 883,5	

Izoh: Hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlari 2017-2018-yillarda amalga oshiriladigan kredit va grant loyihalar doirasida xalqaro moliya institutlarining umumiy summasi 72 367,7 ming AQSh dollarlik mablag'i ishtirokida jihozlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017 — 2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga

SHARH

"Fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilishning asosiy tamoyillari, aynan: sog'liqni muhofaza qilish sohasida inson huquqlariga rioya qilish; aholi barcha qatlamlarining tibbiy yordamdan foydalanishi; profilaktika choralarining ustuvorligi; sog'lig'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganligi; tibbiyot fani va amaliyotining birligi belgilangan.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan shu yil 5-yanvar va 7-fevralda sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan uchrashuvlarda aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni tashkil etishning holatiga tanqidiy baho berildi, bu esa to'planib qolgan muammolarni hal etish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Mamlakatimizda bugungi kunda yuqori malakali va yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatishning yaxlit tizimi shakllantirilgan. Ushbu xizmatlar aniq tashxis qo'yish va davolashning samarali usullarini, shu jumladan, yuqori texnologik diagnostik va tezkor aralashish usullarini qo'llash imkonini beradigan zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlangan respublika va hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi.

Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish yoʻlida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli choralar tufayli faqat oxirgi 5 yilda ixtisoslashtirilgan markazlarda 150 mingdan ortiq tezkor aralashuvlar, shu jumladan, 80 mingdan ortiq yuqori texnologik operatsiyalar amalga oshirildi, davolashning 80 dan ortiq yangi murakkab va noyob usullari amaliyotga joriy etildi.

Shu bilan birga, mazkur sohada aniq va tezkor chora-tadbirlar koʻrishni talab etadigan qator tizimli masalalar mavjud.

Xususan, sogʻliqni saqlash tizimining viloyat va tuman darajalarida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirishda sezilarli darajada qoloqlik kuzatilmoqda. Mintaqalarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga tashkiliy-metodik rahbarlikning samarali vertikalini akllantirishda respublika ixtisoslashtirilgan muassasalarining roli pastligicha qolmoqda. Diagnostika va davolashning respublika muassasalarida sinovdan oʻtgan ilgʻor yuqori texnologik usullar viloyat va tuman darajasidagi tibbiyot muassasalari faoliyatiga sust joriy etilmoqda. Tibbiyotning ixtisoslashtirilgan yoʻnalishlari boʻyicha qoʻlga kiritilgan mahalliy va xorijiy ilmiy yutuqlarni viloyat va tuman tibbiyot muassasalari amaliyotiga joriy etish darajasi past.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi aholisiga 2017 — 2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam koʻrsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi [qarorida](#) respublikaning ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamini yanada rivojlantirishning eng muhim yoʻnalishlarini belgilash, uning geografiyasini tuman (shahar) darajasigacha kengaytirish, hududiy ixtisoslashgan tibbiyot tashkilotlariga tashkiliy-metodik rahbarlik qilish uchun respublika ixtisoslashtirilgan markazlarining masʼuliyatini oshirish, ularning amaliyotiga tibbiy yordamning zamonaviy usullari va texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari nazarda tutilgan.

Qaror bilan barcha darajalarda ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat koʻrsatish tizimini yanada isloh qilish, respublika miqyosida ixtisoslashgan yoʻnalishlar boʻyicha eng zamonaviy yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar koʻrsatish, viloyat darajasida ixtisoslashgan yoʻnalishlar boʻyicha zamonaviy yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar koʻrsatish, tuman (shahar) darajasida ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yangidan tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan boʻlimlar negizida koʻrsatish nazarda tutilgan. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tashkilotlariga esa maxsus tasdiqlangan jadval boʻyicha tuman (shahar) va viloyat darajasidagi tashkilotlarning tor ixtisoslashgan mutaxassisleri tomonidan maslahatlar berilishi, shuningdek, davolash va maslahat-dagnostika yoʻnalishlari boʻyicha ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning ayrim turlarini koʻrsatishi nazarda tutilgan.

Qarorda, shuningdek, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam koʻrsatish tizimida respublika boʻyicha va har bir mintaqada kasalliklar tendensiyalarini oʻz vaqtida aniqlashni taʼminlaydigan zamonaviy tahliliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini keng qoʻllash nazarda tutilgan.

Etakchi respublika ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika tashkilotlari respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlariga aylantirilib, ularning asosiy vazifalari belgilandi.

Oʻz ixtisosligi boʻyicha yagona metodik, texnologik, davolash va profilaktika siyosatini amalga oshirish, zamonaviy tibbiyot uskunolari va texnologiyalariga, dori vositalari va tibbiy buyumlarga boʻlgan ehtiyojni aniqlash, klinik protokollarni, shu jumladan, tegishli tibbiyot hujjatlarini ishlab chiqish, axborot va tahliliy materiallarini nashr etish, sayyor maslahat berishlarni, mahorat darslarini, shuningdek, birinchi navbatda eng murakkab holatlarda hududiy ixtisoslashgan tibbiyot tashkilotlarida operatsiyalarni muntazam ravishda oʻtkazish orqali mintaqalarda zarur profilaktika ishlari olib borilishiga koʻmaklashish markazlarning asosiy vazifalari etib belgilangan. Bundan tashqari, markazlar Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti tibbiyot xodimlarining, ixtisoslashgan hududiy tibbiyot tashkilotlari xodimlarining malakasini tizimli ravishda oshiradi, shuningdek, klinik ordinaturada, tayanch doktoranturada va doktoranturada tor mutaxassisliklar boʻyicha kadrlarni tayyorlaydi, yetakchi xalqaro tibbiyot markazlari, klinikalar va yuqori malakali xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi, shu jumladan, maslahatlashuvlar va mahorat darslari oʻtkazish uchun ularni respublikaga taklif etadi, sogʻliqni saqlash tizimi mahalliy mutaxassislarining chet elda ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari va klinikalarida tajriba orttirishini taʼminlaydi.

Qaror bilan aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish sxemasi va aholining sifatli va samarali ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlardan foydalanishini kengaytirishga, Respublika markazlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga, ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi tibbiyot tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, tibbiyot kadrlari tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga, aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirishga, profilaktika, diagnostika va davolashning zamonaviy usullarini joriy etishga yo'naltirilgan huquqiy bazani takomillashtirishga yo'naltirilgan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlanadi.

Qarorga muvofiq, 2018-yil 1-yanvargacha imtiyozli toifa alohida hisobga olingan holda tegishli ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlardan, shu jumladan, yuqori texnologik tibbiy yordamdan foydalanishga muhtoj bo'lgan bemorlarning doimiy yangilanadigan yagona elektron ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. 2019-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda barcha ixtisoslashtirilgan markazlarda, viloyat filiallarida, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida vrach qabuliga masofadan yozilish imkonini beradigan elektron dastur joriy etiladi.

2022-yil 1-yanvargacha aholiga pulli tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlaridan tashqari) sog'liqni saqlash tizimi davlat tibbiyot tashkilotlarini soliqlarning barcha turlarini va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni to'lashdan, shuningdek, belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha chetdan olib kelinadigan yangi tibbiyot uskunasini, butlovchi buyumlar, tibbiyot uskunasi ehtiyot qismlari va sarflash materiallari uchun bojxona to'lovlari to'lashdan ozod etish nazarda tutilgan. Bo'shagan mablag'lar tibbiyot tashkilotlarini zamonaviy tibbiy, muhandislik-texnika uskunasi bilan jihozlashga hamda unga servis va texnik xizmat ko'rsatishga, ehtiyot qismlari, sarflash materiallari, inventar va boshqa tibbiy buyumlarni xarid qilishga, yangi binolar va inshootlar qurishga, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashga yo'naltiriladi.

Qarorda davolanish uchun chet elga jo'nab ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, mahalliy mutaxassislarining amaliy va nazariy ko'nikmalarini oshirish maqsadida xorijiy yetakchi olimlar, vrachlar va mutaxassislarni shartnoma asosida respublikaga jalb etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Dastur doirasida 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yanada rivojlantirish maqsadida 373,5 milliard so'm va 100 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, shundan 60 milliard so'm mablag' Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashga va 97 million AQSh dollari respublika va hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarini jihozlashga yo'naltiriladi.

Qaror va Dastur doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar respublikada, ayniqsa, viloyat va tumanlar darajasida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirishga, aholining keng qatlamlarini yuqori texnologik tibbiy yordamdan bahramand qilishga, yuqori texnologiyali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam sohasidagi ilm-fan yutuqlari va ilg'or xorijiy tajribani amaliyotga faol joriy etishga xizmat qiladi.

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 25-son, 532-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2019-y., 07/19/4290/2959-son; 11.02.2020-y., 07/20/4592/0150-son, 29.06.2020-y., 06/20/5370/0975-son)